O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UO‘K: 94:323 (575.1) “1917/1938”

Oybek RASHIDOV,
DSc, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail. o.rashidov@tsue.uz ORCID: 0009-0001-0776-2994

Tarix fanlari doktori (DSc), professor A.Ermetov taqrizi asosida

TURKISTON MUXTORIYATINING MILLIY HUKUMATNI HIMOYA QILISH UCHUN KURASHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston muxtoriyatining o‘z milliy hukumatini bolsheviklar tajovuzidan saqlab qolish uchun olib borgan kurashi tahlil qilinadi. Bolsheviklarning shavqatsiz siyosati natijasida ko‘plab begunoh odamlar halok bo‘lganligi va birinchi milliy hukumat qonga botirilganligi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston muxtoriyati, milliy, proletariat, mafkura, sovet, bolshevik, partiya, milliy ziyolilar, qizil armiya.

БОРЬБА ТУРКСТАНСКОЙ АВТОНОМИИ ЗА ЗАЩИТУ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы борьбы Туркестанской автономии за сохранение национального правительства от большевистской агрессии. В результате жестокой политики большевиков погибло много невинных людей, а первое национальное правительство, как говорят, было залито кровью.

Ключевые слова: Туркестанская автономия, национальный, пролетариат, идеология, советский, большевик, партия, национальная интеллигенция, красные солдаты.

THE STRUGGLE OF THE TURKESTAN AUTONOMY TO DEFEND THE NATIONAL GOVERNMENT

Annotation

This article analyzes the issues of Turkestan Autonomy's struggle to save the national government from Bolshevik aggression. As a result of the violent policies of the Bolsheviks, many innocent people died and the first national government was said to have been soaked in blood.

Key words: Turkestan Autonomy, national, proletariat, ideology, Soviet, Bolshevik, party, national intelligentsia, red soldiers.

Kirish. XX asrning boshlarida Turkiston xalqlari, ularning ijtimoiy-siyosiy tashkilotlari va milliy etakchilari o‘lkada erkinlik va mustaqillik uchun, uning demokratik respublika shaklidagi milliy davlat tuzilishi uchun fidokorona kurash olib borayotgan edilar. Mintaqada faoliyat yuritayotgan partiyalar, guruhlar, tashkilotlar yuqorida ko‘rsatilgan ulug‘ maqsadlarga tinch vositalar bilan erishishga intilayotgan edilar. Turkistonda bolsheviklar o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida urush va xo‘jalik sohasidagi vayronagarchilik tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy va oziq-ovqat qiyinchiliklaridan foydalanib, hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun jon-jahdlari bilan hozirlik ko‘rdilar.

1917-yil kuziga kelib o‘lkadagi siyosiy kuchlarning joylashuvini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bolsheviklarni aholining asosiy qismi qo‘llab-quvvatlamas, ular biron-bir darajada kengroq ijtimoiy bazaga (avvalo mahalliy aholi o‘rtasida) ega emasdilar. Aholi o‘sha vaqtlarda o‘z milliy tashkilotlariga, birinchi navbatta “Ulamo” va “Sho‘roi Islom” tashkilotlariga ergashardi. Buning tasdig‘i sifatida 1917-yil yozining oxiri – kuzi boshlarida shahar dumalariga bo‘lib o‘tgan saylov yakunlarini aytib o‘tish mumkin. Ko‘pgina shaharlarda saylovchilarning aksariyati ana shu milliy partiyalar nomzodlari uchun, bolsheviklar vakillariga esa juda ozchilik ovoz bergan edi. Bir qancha shaharlarda bolsheviklar hatto o‘z nomzodlari ro‘yxatini ko‘rsatmadilar, chunki ular baribir shahar dumasiga o‘tmasliklarini oldindan bilar edilar. Bu vaqtda Turkistondagi bolsheviklar soni bor-yo‘g‘i bir necha yuzdan oshmasdi, shu bilan birga ular orasida mahalliy aholi vakillari deyarli yo‘q edi. Shunga qaramasdan, o‘lka bolsheviklari Rossiyadagi o‘z partiyasi ta’sirining ortib borayotganligidan foydalanib, o‘zr berib hokimiyatga intilar edilar. 1917-yilning iyun oyidayoq bolsheviklar etakchisi V.I.Lenin sovetlarning I Butunrossiya s’ezdida o‘z partiyasining mamlakatdagi butun hokimiyatni qo‘lga olishga tayyor ekanligini oshkora bayon qilgan edi. 1917-yil 26-iyuldan 3 avgustgacha bolsheviklar partiyasining Pedrogradda bo‘lib o‘tgan VI s’ezdi hokimiyatni qurolli qo‘zg‘olon yo‘li bilan qo‘lga olishga ko‘rsatma berdi.

Toshkent bolsheviklari o‘z partiyasi yo‘l-yo‘riqlariga amal qilib, 1917-yil 12-sentyabrda bo‘lib o‘tgan ishchi va soldatlarning ommaviy mitingida VI s’ezd ko‘rsatmalari ruhida tuzilgan qarorni ilgari surdilar. Qarorda hokimiyatning sovetlar qo‘liga o‘tishi zarurligi, Muvaqqat inqilobiy qo‘mita tuzilishi, sanoat va banklarning natsionalizatsiya qilinishi, pomeshchiklar erlarining dehqonlarga berilishi, ishlab chiqarish ustidan nazorat o‘rnatilishi, kapitalistlar, boylar va quloqlardan oziq-ovqat zaxiralari darhol musodara qilinishi zarurligi va hokazolar ko‘rsatilgan edi. Biroq mitingda qabul qilingan bolshevikcha rezolyusiyada Turkistonning ko‘p millatli mahalliy aholisi manfaatlarini himoya qilish, uning asriy orzu-umidlarining ado etilishi, unga o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini berish haqida bir og‘iz ham aytilmadi. Agar mitingda ishtirok etganlarning aksariyat ko‘pchiligi tub erli bo‘lmagan aholi vakillari ekanligini, rezolyusiyani tuzib chiqqan bolsheviklar asli buyuk davlatchilik shovinizmi og‘usi bilan benihoya zaharlanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, miting qatnashchilari va qabul qilingan qarorni tuzuvchilar tomonidan musulmon aholi manfaatlari mutlaqo nazar-pisand qilinmaganligi batamom tushunarli bo‘ladi. Ular uchun asosiy narsa proletariatning sinfiy manfaatlarini himoya qilish bo‘lib,

mazlum – mahalliy aholining manfaatlari esa ikkinchi darajali ish edi. Bunday sinfiy yondashuv va mahalliy aholi manfaatlarini mensimaslik Muvaqqat inqilobiy qo‘mita a’zolarining saylovida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Mazkur qo‘mita tarkibiga 13 kishi: 3 nafar bolshevik, 5 nafar so‘l eser, 3 nafar baynalmillachi menshevik va 2 nafar anarxist kirgan edi[1].

Rossiya poytaxti Petrograd shahrida 1917-yilning 25-oktyabrida boshlangan inqilobiy harakatlar Turkiston aholisining siyosiy ongiga ham kuchli ta’sir etib, o‘lkada g‘alayonlar to‘lqinining yangidan boshlanishiga sabab bo‘lgandi. Toshkent shahridagi bolsheviklar tarafdorlari hisoblangan ishchi va soldatlar bilan A.Kerenskiy hukumatining Turkistondagi bosh komissari general Korovichenko kuchlari o‘rtasida kurash boshlangan. Oktyabr to‘ntarishining ikkinchi kuni Turkistonda general Korovichenko aholi va qo‘shinlarga murojaat qilib, ularni Markazdan keyingi voqealar to‘g‘risida xabarlar kelishini kutib to‘la osoyishtalik saqlab turishga chaqirgan. U maxsus telegrammada quyidagicha ta’kidlagan: “Petrograddagi isyon shu kunlarda qurolli kuch bilan bostiriladi va bolsheviklarga qo‘shilish yo‘lidagi urinishlarning hammasi bostirish uchun qurol ishlatiladi”[2]. Biroq, ishchi va soldatlar Turkiston o‘lkasidagi Muvaqqat hukumat kuchlariga qarshi Toshkentda qo‘zg‘olon ko‘tardilar. SHu kuni Turkiston ishchi va soldat deputatlari o‘lka sovetining Levin raisligida yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda mamlakatda yuzaga kelgan umumsiyosiy vaziyat, Muvaqqat hukumat qo‘lida qolgan tuzilmalarning hokimiyatning bolsheviklarga o‘tishiga qarshilik ko‘rsatishi masalalari muhokama qilingan [3].

Toshkentda general Korovichenko qo‘shinlari bilan kurashishda ishchi va soldatlarning qurollangan harbiylari soni 6 ming atrofida bo‘lib, o‘n ikki to‘p bilan sakkizta plemyotlarga ega bo‘lganlar. Ishchi va soldatlardan iborat qo‘zg‘olonchilar Muvaqqat hukumat qo‘shinlariga urushni to‘xtatib, taslim bo‘lishni hamda quyidagi talabni bajarilish shartini qo‘ygan: birinchi, hukumat sovetlarga o‘tsin; ikkinchi, Toshkentdagi propurchiklar maktabi yopilsin; uchinchi, general Korovichenko Toshkentdan ketsin [4].

Ushbu qurolli to‘qnashuv paytida Toshkent aholisi qo‘rquv va xavotirda qolib, katta talafot ko‘rgan. Rasmiy xabarlarga qaraganda, shahardagi bozorlarda musulmonlardan ko‘p kishining talanganliklari haqida ma’lumotlar beriladi [5]. To‘rt kunlik qonli urushlardan keyin 1 (14) noyabrda ishchi va soldatlar general Korovichenko boshchiligidagi harbiy kuchlarni engib, Toshkentda sovet hokimiyatini o‘rnatdilar. Toshkentdagi Muvaqqat hukumat a’zolari va general Korovichenko hibsga olindi.

1917-yil 2-noyabrda Turkiston ishchi-soldat deputatlari o‘lka sovetlarining Muvaqqat O‘lka hukumatini tashkil etish masalasida kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi. Bunda Turkiston o‘lka ijroiya qo‘mitasining 9 kishidan: 3 nafar ishchi va soldat deputatlari o‘lka sovetidan, 2 nafar krestyan deputatlari o‘lka sovetidan, bir nafar qirg‘iz deputatlari o‘lka sovetidan, bir nafar musulmon deputatlari o‘lka sovetidan, bir nafar eserlar partiyasi MQ dan, bir nafar sotsial-demokratlar partiyasi o‘lka byurosidan iborat tarkib saylangan[6]. SHu asnoda bolsheviklar Turkistonda proletariat diktaturasini o‘rnatishga kirishdilar.

Proletariat diktaturasi o‘rnatilgan Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida turli qiyinchiliklar yuzaga keldi. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat masalasida muammolar kuchaydi. Eng muhimi davlat boshqaruvida mahalliy kadrlarga ishonchsizlik bildirildi. Shuning uchun proletariat diktaturasiga qarshi milliy muxolifatning g‘oyaviy kurashlari 3 guruhga bo‘lindi: 1. Ziyolilar va ulamolar. 2. Mahalliy (milliy) kommunistlar. 3. Sovet tuzumiga qarshi qurolli kurashayotganlar.

1917-yil kuzida “Sho‘roi islom” tashkiloti rahbari Munavvar Qori Toshkentda “Ulamo” hamda “Fuqaho” jamiyatlari a’zolari bilan hamkorlikda yig‘inlar o‘tkazib, barchani bolsheviklar fitnasiga qarshi yagona kuch bo‘lib birlashishga chaqiradi. Ushbu tadbirlarda Munavvar Qorining do‘sti Abulqosim qori ham jadid taraqqiyparvarlari tomonda turib, mahalliy aholi o‘rtasida ichki ziddiyatlarga chek qo‘yish va milliy birlik uchun kurashga chaqirib targ‘ibot olib boradi [7].

Bolsheviklar Turkiston o‘lkasi boshqaruvini to‘liq egallashga kirishgach “Sho‘roi islomiya” va “SHo‘roi ulamo” hokimiyatning sovetlarga o‘tishiga qarshi yakdil qarorga keldilar. Turkiston o‘lkasi xalqlari o‘z istiqlolini bermaslik maqsadida 1917-yil 26–28 noyabr (9–11 dekabr) kunlari Qo‘qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqirildi. Ushbu Qurultoy Turkiston o‘lkasi tarixida yangi davr ochilganini ta’kidlab, Turkiston Muxtoriyati tuzilganligini e’lon qiladi [8].

Turkiston Muxtoriyati tuzilgach, ushbu hukumatni boshqarish uchun 54 nafar a’zolardan iborat millat majlisi saylandi. A’zolarning 36 nafari erli xalqlardan, 18 nafari evropa millatiga mansub bo‘ldi. 36 nafar musulmon vakillari Turkistonning 5 viloyatidan: Farg‘onadan 10 nafar, Samarqanddan 5 nafar, Sirdaryodan 9 nafar, Ettisuvdan 6 nafar, Zakaspiydan 2 nafar, qolgan 4 nafari esa butun Turkiston shahar dumalari tarafidan tayin etildi [9].

Milliy hukumatning tuzilgani Turkiston o‘lkasida shodlik bilan kutib olindi. Jumladan, shu yilning 1-dekabr kuni Namanganda yuz ming kishilik tinch namoyish bo‘lib o‘tdi. Ularning bayroqlarida “Yashasin Turkistonning erli muxtoriyati va uning hukumati” degan so‘zlar yozilgan edi [9]. Biroq, Toshkentda 13 dekabr sanasida boshlangan namoyish oxiri fojia bilan yakunlandi. Bolsheviklar Kaufman maydonida tinch namoyish o‘tkazayotgan turkistonliklarni pulemyotdan o‘qqa tutdilar. Turkiston xalqi bu xunrezliklarning bosh aybdoriga o‘zining nafratini “Men bolshevik emasman” [11] maqolasida keltiradi.

Bolsheviklar Turkiston o‘lkasida istiqomat qilayotgan 95 foiz musulmon aholi ustidan hukmronlik qilish, o‘z so‘zini o‘tkazish va buyruqlarini tatbiq qilish maqsadida zo‘ravonlik, murosasizlik siyosatini yuritdilar. Chunonchi, Toshkent shahar Dumasini tarqatdilar, Turkiston Muxtoriyatini “boy va burjuachilar qarori” deb atadilar hamda Toshkentda muxtoriyat shodligi uchun namoyishga chiqqan minglarcha musulmonlarni miltiq va pulemyotlardan o‘qqa tutdilar [12].

Qo‘qon shahrida nashr etilgan “El bayrog‘i” gazetasida milliy hukumat nomidan Turkiston Muxtoriyatini saqlash har bir turkistonlikning burchi sifatida keltirilgan murojaat chiqqan: “Muxtoriyat uchun jonimiz fido bo‘lsin dedik. Endi ushbu ahdimizga albatta turmog‘imiz lozim. Xalq e’lon qilingan muxtoriyatni saqlashni ham bilmog‘i hamda birlik va ittifoqlik bilan harakat qilmog‘i kerak. Biz ittifoq bo‘lsak, 5–6 bolshevik hech narsa qila olmaydi”[13]. SHuningdek, Turkiston Muxtoriyati hokimiyatni bolsheviklardan to‘la qaytarib olish uchun qat’iy kirishdi. 1917-yil 25-dekabr kuni Qo‘qon shahrida milliy hukumatning 200 nafar namoyandalari s’ezdi bo‘lib, unda Turkiston hududidagi barcha idora va hokimiyat darhol Muxtoriyat hukumatiga topshirilishi bo‘yicha qaror chiqarildi .

Bunga javoban 1918-yil 19–26-yanvar kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV s’ezdida Muxtoriyatga butunlay salbiy munosabat bildirildi. Ushbu s’ezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a’zolarini qamoqqa olish haqida qaror chiqardi. S’ezd bolsheviklar fraksiyasining

Turkiston Muxtoriyati to‘g‘risidagi rezolyusiyasini qabul qildi. Rezolyusiyada Turkiston qonuniy hukumati munofiqlarcha “qoraguruhchilar to‘dasi” deb ataldi. Ushbu muxtoriyatchilar proletariat diktaturasini ag‘darib tashlab, feodal tuzumni qaytadan tiklashni maqsad qilgan deb e’lon qilindi. Shu asnoda 1918 yilning 30 yanvar kuni bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatini tugatish borasidagi bosqinchilik urushi boshlangan. Qizil askarlar tomonidan Qo‘qon shahrining tarixiy obidalari, qadamjolari, masjid va madrasalari to‘pga tutilganini ko‘rgan mahalliy aholi g‘azovotga qo‘zg‘olgan [14]. Biroq, ushbu qurolsiz va begunoh insonlar qizil armiya hamda “Dashnoqsutyun” partiyasi [15] a’zolaridan tuzilgan shafqatsiz qurolli drujinalar tomonidan qirib tashlandi. Nihoyat ushbu qirg‘in ko‘rsatilgan yilning 19 fevral kuni milliy hukumatning ag‘darilishi bilan yakunlandi. Ushbu mash’um voqealardan chuqur qayg‘uga tushgan ziyolilardan biri Hoji Mu’in shunday yozadi: “Bu qo‘rqinchli daqiqalarni hech o‘ylamagan edik. Bolsheviklarning bu buzuqchiligi va ruscha buzuq g‘oyalari tufayli so‘nggi uch oy ichida bizning Turkistonimiz shunday og‘ir holga tushdi” [16].

1918-yil boshida Turkistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatib olgan bolsheviklar o‘ziga raqib hisoblagan kuchlarga qarshi keskin kurash boshladilar. Favqulodda tergov komissiyasi eski zobitlar va mahalliy etakchilarni chor Rossiyasi davrida mansabdor bo‘lgan degan bahona bilan qamoqqa olishga kirishadilar. Bunga qarshi mahalliy xalq etakchilari yirik namoyishlar tashkil etadi. Biroq, sovet mafkurachilari bu namoyishlarni dindor va ruhoniylarning reaksion harakati sifatida talqin qiladi va ularni shafqatsizlik bilan jazolaydi.

Turkiston muxtoriyatining bostirilishi va undan keyin o‘lkadagi siyosiy vaziyat haqida turkistonlik delegatlar sovetlar yig‘ilishida quyidagi ma’lumotlarni aytganlar: “Biz butun xalqni Madamin va Ergash bo‘linmalari bilan kesish dahshatli tasavvurini kuzatdik. SHuningdek, o‘zlarini qizil armiya deb atagan va hatto kommunistlar ishtirokining guvohi bo‘ldik. Aslida “dashnoqsutyun” chilarni qaroqchi deb atash o‘rinli bo‘lar edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, dashnoqsutyun imperialistik Angliya quroli edi, buni biz butun Kavkazda, ayniqsa Bokuda dashnoqsutyun tomonidan qilingan xiyonatda bilib olamiz. Barcha mahalliy arman savdogarlari ushbu “kommunistik” partiya safida edilar” [17].

Xulosa. Bolsheviklar partiyasi zo‘ravonlik yo‘li bilan Rossiyada 1917-yil oktyabrda hokimiyatni egallab, sovet davlatiga asos soldilar. Ular Turkistonda o‘zining haq-huquqlarini himoya qilib chiqqan milliy hukumatni shafqatsizlarcha bostirdilar. Bu mintaqada sovet tuzumiga qarshi qurolli kurash boshlanishiga olib keldi. Bolsheviklar Turkiston o‘lkasidagi mavjud tuzumni feodal munosabatlar, ayniqsa ekspluatatsiyaning eng vahshiyona shakli deb e’lon qildilar Evropalik ishchilar va mahalliy aholi o‘rtasidagi munosabatlar ham keskinlashdi. Mahalliy boy va musulmon ulamolari mulklariga proletariatcha hujum uyushtirdilar va sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qildilar. Natijada ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat og‘irlashib, bozor munosabatlaridagi muvozanat buzildi. O‘lkada ijtimoiy ahvol og‘irlashib, erli aholi ocharchilik girdobiga tortildi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Масъул муҳаррир М.Жўраев. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. –Б.41-42.
2. Ўзбекистон ССР тарихи. III жилд. Улуғ Октябрь социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм қуриш (1917 – 1937 йиллар). – Тошкент: “Фан”, 1971. –Б.102–103.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, 1613-fond, 1-ro‘yxat, 1a-yig‘ma jild, 86-varaq.
4. Toshkent fojealari // “Hurriyat”. 1917-yil. 3-noyabr, 48-son.
5. Toshkent xabarlari. Buxoro // “Hurriyat”. 1917-yil. 7-noyabr, 49-son.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi, 1613-fond, 1-ro‘yxat, 1a-yig‘ma jild, 91-varaq.
7. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Еттинчи китоб. – Тошкент: “Тошкент ислом университети”, 2018. –Б.140–141.
8. Tarix takrorlandi // “El bayrog‘i”. 1917-yil 9-dekabr, 12-son.
9. Turkiston Muxtoriyati // “Hurriyat”. 1917-yil 1- dekabr, 56-son.
10. Muxtoriyatga Turkiston musulmonlari shodlik namoyishlari // “El bayrog‘i”. 1917-yil 9-dekabr, 12-son.
11. Men bolshevik emasman // “Hurriyat”. 1918-yil 9-yanvar. 65-son.
12. Bolsheviklar va biz // “Hurriyat”. 1918-yil 9-yanvar, 65-son.
13. Muxtoriyatli millatlar va bolsheviklar // “El bayrog‘i”. 1918-yil 22-yanvar, 18-son.
14. Turkiston Muxtoriyati fojeasi // “Ulug‘ Turkiston”. 1918-yil 26-fevral, 63-son.
15. Dashnoqsutyun partiyasi (armancha “Tashnak sutyun”) – 1890 yili Tiflisda tuzilgan partiya bo‘lib, dasturida G‘arb davlatlari va Rossiya ko‘magida qurolli isyon hamda terror yo‘li bilan Turkiya hududida “Buyuk Armaniston” davlatini qurishni maqsad qilgan.
16. Hoji Mu’in. Og‘ir hollar // “Hurriyat”. 1918-yil 22-fevral, 73-son.
17. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-17-fond, 1-ro‘yxat, 820-yig‘ma jild, 158-varaq.